Umuman olganda, amalga oshirilgan onto-epistemologik tahlil innovatsion ta'lim konsepsiyasining nazariy poydevorini mustahkamlab, ta'lim jarayonini zamonaviy ijtimoiy-falsafiy jarayonlar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ilmiy asoslab berdi.

Mazkur tadqiqotda olib borilgan tahlillar ta'lim jarayonining an'anaviy "bilim uzatish" modelidan shaxsning bilish, o'zini anglash va ijodiy salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan dinamik tizimga transformatsiyalanayotganini ko'rsatadi. Bu jarayon ta'limning ontologik mohiyatini qayta talqin qilish zarurligini yuzaga chiqardi.

Endilikda zamonaviy ta'lim sharoitida bilim hosil qilish jarayonida subektning faol ishtiroki hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa interfaol pedagogik metodlar, raqamli ta'lim muhitlari va loyiha asosida o'qitish texnologiyalarini keng joriy etishni taqozo etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, raqamli transformatsiya ta'limning epistemologik tuzilishini tubdan o'zgartirib, bilish jarayonini individual ong chegarasidan chiqib, tarmoqli axborot makoni bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu holat ta'limning yangi falsafiy modelini shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi.

Xulosa. Shuningdek, innovatsion ta'lim asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni zamonaviy jamiyat talablariga mos, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi, ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Umumiy xulosa sifatida aytish mumkinki, innovatsion ta'lim konsepsiyasini onto-epistemologik asosda tahlil qilish ta'lim nazariyasini yangi bosqichga olib chiqish, pedagogik amaliyotni modernizatsiya qilish hamda barqaror taraqqiyot uchun zarur intellektual salohiyatni shakllantirishga metodologik poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). Dewey J. Democracy and Education. New York, "Macmillan", 1916.

(2). Freire P. Pedagogy of the Oppressed. New York, "Continuum", 1970.

(3). Heidegger M. Being and Time. Oxford, "Blackwell", 1962.

(4). Foucault M. The Archaeology of Knowledge. London, Routledge, 1972.

(5). Vigotski L.S. Mind in Society. The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge: Harvard Uni versity Press, 1978.

(6). Castells M. The Rise of the Network Society. Oxford, Blackwell Publishing, 2010.

(7). Toffler A. The Third Wave. New York, Bantam Books, 1980.

(8). UNESCO. Education in a Post-COVID World: Nine Ideas for Public Action. Paris, UNESCO, 2020.

(9). Abdizoitovich G. Educational Problems in The Information Society. Emergent, Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). 2025, T. 6, №.4, p. 5.

(10). Kubaeva S. Reason and thinking: the importance of intellectual games in scientific creativity.Western European Journal of Historical Events and Social Science. 2024, T. 2, №.11, c. 26–30.

(11). Tashmuradovna K.S. Philosophical reflection of the idea of the game. 2022.

(12). Mardonov R. Historical and philosophical analysis of Eastern and Western education systems International Journal for Advanced Research In Science & Technology/A peer reviewed international journal. www. ijarst. in. 2021, T. 11, №.02, c. 252–256.

Xudayberganov Shuhrat Shavkat o'g'li (UrDPI "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi professori v.b., p.f.b.f.d. (PhD) (Xorazm viloyati, Urganch shahri; sh.xudayberganov.urdu@mail.ru; ORCID-0009-0007-9006-8998), Abdullayeva Xurshida Shuxrat qizi (Urganch shahar 5-DMTT tarbiyachisi, UrDPI Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim) mutaxassisligi 1-kurs magistranti; abdullayevaxurshida04@gmail.com)

TAYYORLOV GURUHI TARBIYALANUVCHILARINI GENDER XUSUSIYATLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA MAKTAB TA'LIMIGA TAYYORLASHNI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. *Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalarni gender tenglik tamoyillari asosida maktab ta'limiga intelektual tayyorlash masalalari yoritilgan. Gender tenglik tushunchasining pedagogik mohiyati, uning bolalar shaxsini shakllantirishdagi o'rni, maktabga psixologik va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, tayyorlov guruhlarida gender sezgir ta'lim muhitini yaratish, tarbiyachining roli, o'yin va mashg'ulotlar orqali teng imkoniyatlarni ta'minlashning amaliy mexanizmlari ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *gender tenglik, tayyorlov guruhi, maktabga tayyorlash, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, gender sezgirlik, intelektual tayyorgarlik, ijtimoiy moslashuv, tanqidiy tafakkur, ematsional rivojlanish.*

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПОДГОТОВКИ ВОСПИТАННИКОВ ПОДГОТОВИТЕЛЬНОЙ ГРУППЫ К ШКОЛЬНОМУ ОБУЧЕНИЮ С УЧЁТОМ ИХ ГЕНДЕРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ

Аннотация. *В данной статье освещаются вопросы интеллектуальной подготовки детей, воспитывающихся в подготовительных группах дошкольных образовательных организаций, к школьному обучению на основе принципов гендерного равенства. Педагогическая сущность понятия гендерного равенства, его роль в формировании личности ребёнка, а также значение в процессе психологической и социальной адаптации к школе проанализированы с научно-теоретических позиций. Кроме того, рассматриваются практические механизмы создания гендерно-чувствительной образовательной среды в подготовительных группах, роль воспитателя, а также обеспечение равных возможностей через игры и занятия.*

Ключевые слова: *гендерное равенство, подготовительная группа, подготовка к школе, дошкольное образование, воспитатель, гендерная чувствительность, интеллектуальная подготовка, социальная адаптация, критическое мышление, эмоциональное развитие.*

IMPROVING THE PREPARATION OF PRESCHOOL GROUP CHILDREN FOR SCHOOL EDUCATION BY TAKING INTO ACCOUNT THEIR GENDER CHARACTERISTICS

Annotation. *This article discusses the issues of intellectually preparing children in preparatory groups of preschool education institutions for school education based on the principles of gender equality. The pedagogical essence of the concept of gender equality, its role in shaping a child's personality, and its importance in the psychological and social adaptation process to school are analyzed from a scientific and theoretical perspective. In addition, the article outlines practical mechanisms for creating a gender-sensitive educational environment in preparatory groups, the role of the educator, and the provision of equal opportunities through play and activities.*

Keywords: *gender equality, preparatory group, school readiness, preschool education, teacher, gender sensitivity, intellectual preparation, social adaptation, critical thinking, emotional development.*

Kirish. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim tizimida insonparvarlik, tenglik va adolat tamoyillariga asoslangan yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bolalik davridan boshlab gender tenglik g'oyalarini singdirish jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishning muhim omillaridan biri bo'lib, ushbu tushunchani yosh avlod ongiga keng ko'lamda singdirish bilan bir qatorda ularda huquqiy tarbiyani shakllantirish hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimining tayyorlov guruhi bosqichi bolaning keyingi ta'lim bosqichi – maktab ta'limiga o'tishidagi muhim davr bo'lib, aynan shu jarayonda bolaning ijtimoiy faolligi, o'ziga bo'lgan ishonchi, tengdoshlar bilan munosabati shakllanadi. Shu sababli bugungi kunda tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini gender tenglik asosida maktab ta'limiga tayyorlash dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi. N.Qosimova, N.Alimovalar o'zining "Gender va media" o'quv qo'llanmasida jahon va O'zbekistonda gender mavzusi, uning feminizmdan farqi, jamiyatning ushbu yo'nalishda huquqiy ongni oshirishda OAVning roli, OAV orqali gender streotiplarni bartaraf etish yo'llari, O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlashda olib borilayotgan siyosat haqidagi qarashlarini yoritib bergan [1].

N.Egamberdieva, B.Xonturayev, Sh.Abdiraimova "Ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash masalalari" monografiyasida ta'lim jarayonida gender tenglikni ta'minlashning zamonaviy tendensiyalari va muammolari, ilmiy-nazariy asoslari, ta'lim jarayonida gender yondoshuv asosida yigit qizlarni kasbga tayyorlashning huquqiy-nazariy asoslarini aniq vazifa sifatida ko'rsatib bergan [2].

G.A.Samandarovaning "Gender yondashuv asosida maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalalari" maqolasida gender yondashuv asosida o'quvchi-yoshlarni kasbga yo'naltirish borasidagi masalalari hamda dunyodagi ilg'or tajribalarni mamlakatimizga tatbiq etish bo'yicha fikr-mulohaza, tahlillar va amaliy ishlarni yoritib o'tadi [3].

D.E.Madrahimovaning "Barqaror rivojlanish maqsadlari: ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash imkoniyatlari" mavzusidagi maqolasida barqaror rivojlanish maqsadlari doirasida ta'lim tizimida gender tenglikni ta'minlash imkoniyatlari tahlil qiladi. Ta'lim gender tenglikka erishishning asosiy omili sifatida qaralib, qizlar va ayollar uchun ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish, gender stereotiplarini bartaraf etish, ta'lim mazmuni hamda metodologiyasini tenglikka asoslangan holda takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqadi. Maqolada gender tenglikni ta'minlashning ta'lim tizimiga ta'siri, mavjud qiyinchiliklar va ularni yengish yo'llari ham tahlil qiladi. Shu orqali jamiyatda barqaror rivojlanishga erishish uchun ta'limning o'rni va ahamiyatini keng qamrovda yoritib beradi [4].

Tadqiqot metodologiyasi. Gender tenglik bu qiz va o‘g‘il bolalarga ta’lim, tarbiya, rivojlanish va o‘z imkoniyatlarini namoyon etishda teng sharoit va imkoniyatlar yaratish demakdir. Pedagogik nuqtayi nazardan, gender tenglik bolani biologik jinsidan qat’i nazar, shaxs sifatida qabul qilish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan yondashuvni anglatadi.

Maktabgacha yosh davrida bolalarda jinsiy stereotiplar tez shakllanadi. Masalan, “qizlar jim bo‘lishi kerak”, “o‘g‘il bolalar kuchli bo‘lishi shart” kabi qarashlar bolaning o‘zini namoyon etishiga to‘sqinlik qiladi. Gender tenglikka asoslangan tarbiya esa har bir bolaning qobiliyatini erkin rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tayyorlov guruhi yoshidagi bolalarning rivojlanish xususiyatlari. Tayyorlov guruhi (6–7 yosh) bolalarida, asosan, mustaqil fikrlash qobiliyatini, ijtimoiy rollarni anglash ko‘nikmalarni, o‘ziga baho berishni, tengdoshlar bilan muloqot qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Aynan shu davrda bolalar maktab muhitiga psixologik jihatdan tayyorlanadi. Agar bu jarayonda gender tenglikka e’tibor berilmasa, bola o‘zini cheklangan yoki ikkinchi darajali deb his qilishi mumkin. Shu bois tayyorlov guruhida ta’lim-tarbiya jarayoni tenglik, hamkorlik va o‘zaro hurmat asosida tashkil etilishi lozim

Gender tenglik asosida tayyorlangan bola quyidagi xususiyatlarga ega bo‘ladi:

a) maktab muhitiga tez moslashadi;

b) o‘z fikrini erkin bildiradi;


d) jamoada ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi;

e) qarama-qarshi jins vakillariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘ladi.

Bu esa boshlang‘ich ta’limda o‘quv faoliyatining samarali tashkil etilishiga zamin yaratadi.

Gender sezgir ta’lim muhiti–o‘yinchoqlar va didaktik materiallarni jinsga ajratmaslikni, mashg‘ulotlarda qiz va o‘g‘il bolalarni teng jalb etishni, rolli o‘yinlarda barcha rollarni erkin tanlashga imkon berishni, tarbiyachining nutqida stereotip iboralardan voz kechishni shu bilan bir qatorda, huquqiy tarbiya va ta’limni targ‘ib qiladi. Masalan, qurilish o‘yinlarida faqat o‘g‘il bolalarni emas, qizlarni ham faol ishtirok ettirish gender tenglikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Tarbiyachining gender tenglikni ta’minlashdagi roli yetakchi hisoblanadi. Tarbiyachi gender tenglik g‘oyalarini amaliyotga joriy etuvchi asosiy subyektdir (1-rasm).



1-rasm. Gender tenglikda tarbiyachining roli.

Tarbiyachining shaxsiy qarashlari va pedagogik madaniyati bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyatga ega.


O‘yin va mashg‘ulotlar orqali gender tenglikni shakllantirish. O‘yin – maktabgacha yoshdagi bolalar uchun asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Asosan, rolli o‘yinlar, jamoaviy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar orqali bolalarda:

–hamkorlik;

–tenglik;

–mas'uliyat hissi rivojlanadi.

Masalan, "Maktab" rolli o'yinida qiz bola direktor, o'g'il bola esa o'qituvchi rolini bajarishi bolalarning stereotip fikrlarini yo'qotishga yordam beradi.



Oila va maktabgacha ta'lim tashkiloti o'rtasidagi hamkorlik bolaning barkamol rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini gender tenglik asosida maktab ta'limiga tayyorlash zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Jamiyatda "Gender tenglik" tushunchasini ommaga yoyish va kelajak avlod ongida ma'lum bir to'g'ri shakllangan ma'noni shakllantira bilish asosiy vazifa hisoblanadi. Gender tenglikka asoslangan yondashuv bolalarda ijtimoiy faollik, mustaqillik va o'ziga ishonchni shakllantiradi hamda ularning maktab ta'limiga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqot doirasida maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tayyorlov guruhlarida tarbiyalanayotgan bolalarni gender tenglik tamoyillari asosida maktab ta'limiga tayyorlash masalasi tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqot jarayonida gender tenglikka asoslangan yondashuv bolalarning maktabga psixologik, ijtimoiy va kognitiv jihatdan moslashuvini samarali ta'minlashi aniqlandi.

O'tkazilgan pedagogik kuzatuvlar va tahlillar shuni ko'rsatdiki, gender sezgir ta'lim muhiti yaratilgan tayyorlov guruhlarida bolalarda o'ziga ishonch, mustaqil fikrlash, muloqotga kirishish va hamkorlikda faoliyat yuritish ko'nikmalari barqarorroq shakllanadi. Shu bilan birga, o'g'il va qiz bolalar imkoniyatlarining teng ta'minlanishi ularning qobiliyat va qiziqishlarini erkin namoyon etishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari tarbiyachining kasbiy pozitsiyasi va pedagogik yondashuvi gender tenglikni ta'minlashda hal qiluvchi omil ekanini tasdiqladi. Mashg'ulotlar va o'yin faoliyatida gender stereotiplardan holi metodlardan foydalanish bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini gender tenglik asosida maktab ta'limiga tayyorlash nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki bolalarda teng huquqlilik, ijtimoiy moslashuvchanlik va shaxsiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu yondashuvni maktabgacha ta'lim amaliyotiga keng joriy etish zamonaviy ta'lim talablariga mos, barqaror va ijtimoiy mas'uliyatli shaxslarni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

(1). N.Qosimova, N.Alimova. "Gender va media". O'quv qo'llanma, Toshkent, "Bayoz", 2022, 136-bet.

(2). N.M.Egamberdieva, B.A.Xonturaev, Sh.Abdiraimova. Ta'lim tizimida gender tengligini ta'minlash masalalari. Monografiya, Toshkent, "Mahalla va oila" nashriyoti, 2024, 116-bet.

(3). G.A.Samandarova. "Gender yondashuv asosida maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirish masalalari". International scientific and practical conference jurnali. 365–369 p.

(4). D.E.Madraximova. “Barqaror rivojlanish maqsadlari: ta’lim tizimida gender tenglikni ta’minlash imkoniyatlari”. ASI In-academy.uz/index.php/yo

(5). N.J.Yusupova, B.B.Mamadiyev, M.M.Haydarov. “Islomda gender tenglikning o‘ziga xos tamoyillari”. O‘quv-uslubiy qo‘llanma, Toshkent, “Baktria press”, 2022, 176-bet.

Urazova Guli Uringaliyevna (Urganch davlat Pedagogika instituti magistranti; e-mail: urazovaguli02@gmail.com)

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA NOSIRIDDIN TUSIYNING “AXLOQI NOSIRIY” ASARINING O‘RNI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada buyuk mutafakkir, olim, ensiklopedik Nosiriddin Tusiyning “Axloqi Nosiriy” asaridagi ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy, pedagogik qarashlarning boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi o‘rni hamda asari asnosida ma’naviyat soatlarini tashkil qilish metodikasi haqida fikrlar bildirilgan. Ushbu maqolada “Axloqi Nosiriy” asardagi hayotiy misollar va hikmatli o‘gitlar orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda halollik, kattalarga hurmat, to‘g‘ri so‘zlik, bir-biriga hurmat hamda do‘stlik fazilatlarini tarbiyalashning amaliy ahamiyati ham ko‘rsatib o‘tilgan.*

Kalit so‘zlar: *Nosiriddin Tusiy, pedagogik qarash, “Axloqi Nosiriy”, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari, ma’naviyat, tarbiya, komil inson, ma’naviyat soati.*

Уразова Гули Урингалиевна (магистрант Ургенчского государственного педагогического института; e-mail: urazovaguli02@gmail.com)

РОЛЬ ПРОИЗВЕДЕНИЯ НАСИР АД-ДИНА ТУСИ “АХЛАКИ НАСИРИ” В ФОРМИРОВАНИИ ДУХОВНО-НРАВСТВЕННЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Аннотация. *В данной статье рассматриваются духовно-нравственные, воспитательные и педагогические взгляды великого мыслителя, учёного-энциклопедиста Насир ад-Дина Туси, изложенные в его произведении “Ахлаки Насири”, а также их значение в процессе начального образования. Кроме того, в статье высказываются мысли о методике организации занятий по духовно-нравственному воспитанию на основе данного произведения. Показано практическое значение воспитания у учащихся начальных классов таких качеств, как честность, уважение к старшим, правдивость, взаимное уважение и дружба, на примере жизненных ситуаций и мудрых наставлений, представленных в произведении “Ахлаки Насири”.*

Ключевые слова: *Насир ад-Дин Туси, педагогические взгляды, “Ахлаки Насири”, учащиеся начальных классов, духовность, воспитание, совершенная личность, урок духовности.*

Urazova Guli Uringaliyevna (Master’s student, Urgench State Pedagogical Institute; e-mail: urazovaguli02@gmail.com)

THE ROLE OF NASIR AL-DIN TUSI’S WORK “AKHLAQ-I NASIRI” IN FORMING THE SPIRITUALITY OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Annotation. *This article examines the spiritual-moral, educational, and pedagogical views presented in the work “Akhlaq-i Nasiri” by the great thinker, scholar, and encyclopedist Nasir al-Din Tusi, as well as their role in the process of primary education. The paper also discusses methodological approaches to organizing spirituality lessons based on this work. In addition, the practical significance of fostering such qualities as honesty, respect for elders, truthfulness, mutual respect, and friendship among primary school students through life examples and wise teachings found in “Akhlaq-i Nasiri” is highlighted.*

Keywords: *Nasir al-Din Tusi, pedagogical views, Akhlaq-i Nasiri, primary school students, spirituality, education, morally mature individual, spirituality lesson.*

Kirish. Ta’lim ijtimoiy hodisa bo‘lib. uning tarixi juda uzoqdir. Ta’lim kishilik jamivati rivojining dastlabki davridayoq katta rol o‘ynagan. U to‘plangan tajribalarni dunyo haqidagi axborotlarni berish jarayonini ta’minlagan, insoniyatning faqat ijtimoiy rivojlanishiga emas, balki qiyin sharoitlarda yashay olishiga ham yordam bergan [1;32-b.]. Ta’lim orqali inson borliqni anglaydi. Yosh avlodni tarbiyalashda ta’lim va tarbiyani chambarchas olib borish lozim. Bu borada biz ajdodlarimizning boy ilmiy merosi, tajribasi hamda milliy, qadimiy qadriyatlariga suyanamiz. Ayniqsa, Sharq mutafakkir, olimlarining asarlarini muhim o‘rini mavjud. Shuningdek, ta’lim aqlni charxlasa, tarbiya esa ko‘ngilni, insonni ichki dunyosini poklashga yordam beradi. 13-asrda yashab ijod qilgan allomalardan biri Nosiriddin Tusiy ham bola tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o‘rni naqadar muhim ekanligini ta’kidlab o‘tgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Axloqi Nosiriy” – uchta katta maqoladan tashkil topgan. Birinchi maqola – “Axloqning poklantirilishi haqida” 2 qism (“Asoslar” (7-bob), “Maqsadlar” (10-bob)dan iborat